

TILSHUNOSLIKDA QOLIPLASHTIRISH METODI

Muhabbat Qurbonova

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti professori

Mohinur Mo'min qizi Raxmatilloeva

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada tilshunoslikda qoliplashtirish metodi, ona tilimizdagi qoliplashtirish xususidagi qarashlar, ayrim so'z birikmalarining lisoniy sintaktik qoliplari hamda ulardan nutqiy hosilalar yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Tayanch so'zlar: qolip, qoliplashtirish, lisoniy birlik, lisoniy sintaktik qolip, nutqiy sintaktik qolip, nutqiy hosila, so'z birikmasi qolipi,

Mislsiz taraqqiyot og'ushida ildamlab borayotgan jamiyatimizda boshqa sohalaridagi kabi tilimizning ham turli tomonlari o'rganilmoqda. Tilni qoliplashtirish: so'z yasash, so'z birikmasi hosil qilish, gap tuzish qolipi ma'lum bir til ustida ish olib borish uchun ham, ushbu tilni boshqa tildagi kishilar o'zlashtirishi uchun ham birday muhim yo'l sanaladi.

Modellashtirish, ya'ni qoliplashtirish har bir fan obyektini soddalashtiruvchi metoddir. Lingvistik birliklarni soddalashtirish bu belgilar tarkibidagi elementlarning barqaror munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham butunlik tarkibidagi elementlar o'rtasida munosabatlarning barqaror va beqaror turlarga ajratilishi lingvistik modellashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Formallashtirish - bu bilimlar majmuasini, mazmunini muayyan shakllar yordamida sun'iy til belgilari orqali ifodalashdir.

Qolip quyidagi asoslarga ko'ra bilishda muhim hisoblanadi:

- birinchidan, u o'rganish obyektini soddalashtiradi;
- ikkinchidan, uni boshqa obyektlar ta'siridan ajratadi;
- uchinchidan, qolip obyektini ta'riflashni osonlashtiradi.

Qolip aslida, model dastlab amaliy sohalarida ishlatilgan. Keyinchalik ilm-fanning ijtimoiy sohalariga ham kirib keldi. Bu matematika, kimyo fanlariga keng tatbiq qilingani yaqqol ko'rinadi. Qoliplashtirish barcha fanlar uchun xos bo'lgan umumilmiy metod hisoblanadi.

Mazkur metodning bir qator afzalliklarini nazarda tutadilar. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

- birinchidan, qoliplashtirish amaliy metod hisoblanadi, tavsifiy emas;
- ikkinchidan, qoliplashtirish metodi har qanday sharoitda optimal ("eng qulay", "eng maqbul" degan ma'nolarni ifodalaydi) hisoblanadi;
- uchinchidan, qoliplashtirish metodi ekonomiya prinsipiga tayanadi. Bunda so'z, uzun ta'rif va tavsiflarga ehtiyoj bo'lmaydi;

- to'rtinchidan, obyektning tushuntirish va izohlashni osonlashtiradi va soddalashtiradi.

Nutqiy sintaktik birlik sifatida nutqda qo'llaniladigan, sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan, o'qish, yozish, aytish, eshitish mumkin bo'lgan so'z birikmasi va gap tushuniladi. Lisoniy sintaktik birlik esa so'z birikmasi va gap hosil qilish qolipi. Lisoniy sathga tegishli bo'lganligi uchun ularni lisoniy sintaktik qolip (qisqacha LSQ) deb ataymiz.

LSQ g'isht qolipiga o'xshaydi. Inson ongida ham so'zlash, nutqni shakllantirish maqsadida leksemalarni so'z birikmasi shakliga keltirish, gap hosil qilish qolipi mavjud. Ular LSQ, model, konstruksiya, qurilma deb nomlansa-da, aslida bir tushunchani ifodalaydi. Masalan, kitobni o'qimoq kabi cheksiz birikmani chiqaradigan [ot^{tushum kelishigi} +fe'l] so'z birikmasi qolipi qanday nomlanmasin, uning mohiyatiga ta'sir qilmaydi.⁴⁷

1.Model tabiiy obyektning aynan nusxasi bo'lishi kerak

2.Original model o'zida elementlarning murakkab tuzilishini namoyon eta olishi kerak.

3.Tabiiy obyektning hamma xususiyatlari original modelga to'g'ri kelishi kerak.

4.Model evristik funktsiyaga ega bo'lishi kerak. Ya'ni u yangi g'oyalar bera olishi va uni amaliyotda sinab ko'rish imkoniyati bo'lishi zarur⁴⁸

Sintaktik qolip so'z birikmasi, gapning qolipi bo'lib, bir qolipni imkoniyatidan foydalanib, voqelikda nutq vaziyatidan kelib chiqib, bir necha so'z birikmasi yoxud gap hosil qilish mumkin, bunday lisoniy sintaktik qoliplar bir tilni o'rganish, o'zlashtirish boshqa tillarga uning grammatikasini solishtirish uchun tilning ixchamlashtirilgan, muqobil vositasidir. Bugunga kelib tilshunoslarimiz tomonidan ham LSQ ustida amaliy izlanishlar olib borilmoqda, tilimizning modellashtirilishi amalga oshirilib, buning uchun nimalarga ahamiyat qaratilishi lozimligi haqida fikr mulohazalar bildirilmoqda. Jumladan, kompyuter lingvistikasi sohasi uchun ham sintaktik qoliplarning ehtimoliy nazariyalari ishlab chiqilgan

LSQlar nutqiy hodisa sifatidagi gaplarning asosiy grammatik va struktur (qurilish) xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan mavhum qurilma sifatida yashaydi. Bu gapning struktur elementlari orasidagi munosabatni ifodalab, uning umumiy grammatik ma'nosini o'zida mujassamlashtiradi.

Qoliplar haqidagi xulosa hali izchil va boshqa lisoniy birliklar kabi qoliplar ham miqdoran chekli va mohiyatan umumiy bo'lishi lozim.⁴⁹ Demak, qolip va nutqiy hosila bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalardir. Zero, bir tildan foydalanish uchun uning nutqiy hosilasini voqelantirish uchun undagi lisoniy qoliplarni bilish ham zarur bo'ladi. Masalan, tilimizda asosan tushum kelishigidagi ismdan so'ng o'timli fe'l [ism^{tushum kelishigi} + o'timli fe'l] *gulni uzmoq, kitobni o'qimoq, topshiriqni bajarmoq* yoki qaratqich kelishigidagi ismdan keyin qaralmish [ism^{qaratqich kelishigi} + ism^{egalik q}] *hayotining mazmuni, gulning ifori, mening fikrim* kabi qo'llaniladi.

⁴⁷ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abduzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.: Fan va texnologiya, 2009 – B. 288-294.

⁴⁸ Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. –Toshkent: o'qituvchi, 2001.

⁴⁹ Bahridinova.B. [Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis Qarshi,2007. – B.26-28.](#)

Qolip va nutqiy hosila (soʻz birikmasi va gap) lar dialektik birlikdadir. Qolip nutqiy hosilasiz oʻlik va jonsiz, nutqiy hosila esa qolipsiz boʻlishi mumkin emas. Quyida LSQ va nutqiy soʻz birikmasining bir-biriga oʻxshamaydigan, farqli xususiyatlarini bayon etamiz. LSQ moddiylikdan xoli va nutqiy hosila moddiylikka ega. LSQlar jamiyat aʼzolari ongida mavjud boʻlib, kishilarning erkin birikmalar hosil qilish koʻnikmasi sifatida uzoq vaqtlar davomida shakllanadi. Maʼlum boʻladiki, LSQlar jamiyat aʼzolari ongida yashaydi va moddiy qiyofaga ega emas. Uni sezgi aʼzolari asosida bilib boʻlmaydi. Qoliplardan chiqqan nutqiy hosilalarni esa aytish, eshitish, yozish va oʻqish mumkin ekan, bu ularning moddiylikka egaligidir. LSQlar bir kishi tomonidan emas, balki shu tilda soʻzlashuvchi jamiyatning barcha aʼzolari tomonidan uzoq vaqtlar davomida shakllangan. Shuningdek, ular bir kishi uchun emas, balki jamiyatning shu tilda soʻzlashuvchi barcha aʼzolari uchun birday xizmat qiladi. Bu LSQlarning ijtimoiy tabiatga egaligini koʻrsatadi. LSQlar asosida vujudga keluvchi nutqiy hosilalar har bir kishi nutqida oʻziga xosdir;

LSQlar takrorlanuvchan va nutqiy hosilalar betakrordir. LSQlar cheklangan va nutqiy hosilalar cheksiz. Bugungi kunda oʻzbek tilida soʻz birikmasi hosil qilishning 18 ta ustuvor qolipi aniqlangan. Bu qoliplardan chiqqan, chiqayotgan va chiqadigan nutqiy soʻz birikmalari miqdorini tasavvur ham qilib boʻlmaydi. Gap qoliplari va ularning hosilalari ham xuddi shunday. LSQlar majburiy va nutqiy hosilalar ixtiyoriydir. Oʻzbek tilida soʻzlashuvchi kishilar nutq jarayonida soʻz birikmasi tuzishga ehtiyoj sezar ekan, bunda LSQning yuqorida aytilgan 18 ta turidan foydalanishga majbur. Ularning LSQlarni oʻzgartirishga, yangi-yangi LSQlar tuzishga til “qonunchiligi” tomonidan yoʻl qoʻyilmadi. Biroq nutqiy soʻz birikmasi hosil qilish-qilmaslik, qanday soʻzlarni tanlashi soʻzlovchining ixtiyorida boʻlib, xohlasa tuzib, xohlamasa tuzmasligi mumkin.

Soʻz birikmalari qolipiga toʻxtaladigan boʻlsak, ular cheklangan, ammo yuqorida taʼkidlanganidek, ularning har biridan cheksiz soʻz birikmalari hosil qilinadi va ulardan hosil boʻlgan hosilalarning har biri nutq vaziyatidagi betakrorlik hisoblanadi.

[ism qaratqich kelishigi + ism egalik qoʻshimchasi] – gulning yaprogʻi, yomonning yaxshisi, taq-taqning taʼsiri, oʻqishning foydasi, oʻqiganning dunyoqarashi, beshning yarmi, sening omading.

Ushbu qolip bu soʻz birikmalari uchun umumiy hisoblanib, yaproq, yaxshi, taʼsir, yarim, omad, foyda, dunyoqarash soʻzlari bilan ifodalangan hokim qismda qarashlilik maʼnosi aks etadi.

Xuddi shunday har bir qolipdan hosil boʻlgan soʻz birikmasi hosilasi qayta tuzilganda, boshqa hosilaga aylanadi.

[ot joʻnalish kelishi + feʼl] – maktabga bormoq, uyga qaytmoq, daftarga yozmoq, qishloqqa joʻnamoq;

[ot chiqish kelishigi + feʼl] – shahardan chiqmoq, ishdan boʻshamoq;

Bugungi kunga kelib turli sohalarda tilimizni ixchamlashtirish yoʻlga qoʻyildi. Xoh kompyuter lingvistikasi uchun, xoh grammatikani soddalashtirish uchun boʻlmasin

SBLSQlaridan turli sohalarga oid nutqiy hosilalar berilmoqda. Jumladan, tibbiyot sohasiga oid ayrim sintaktik birliklar qolipi yaratildi.

Nutqiy shart-sharoit, vaziyat, kommunikativ ehtiyoj va maqsad, asosiysi, inson omili tilning mavjud imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga sabab bo'ladi. Inson tafakkurining tibbiyot fanida zuhurlanishi tilning nafaqat leksik, balki nomlash vazifasini bajaruvchi sintaktik sath 190 birliklarini ham ishga soladi. Nominativ vazifa birlashtiruvchi bir paradigmada turli sath –sintaktik va leksik sath birliklari sathlararo aloqadorlikni yorqin namoyon etadi. Bu sintaktik birliklar SBLSQlari bo'lib, tibbiy nutqda kuzatganimizdek tibbiy terminlarni yuzaga keltiradi. Tibbiy terminlarning *qon zardobi, yurak xuruji, qon bosimi, buyrak yetishmovchiligi, miokard infarkti, asab to'qimasi, disk churrasi, jarrohlik amaliyoti, bachadon miomasi, jigar kasalligi, o'pka arteriyasi, ko'krak qafasi, rentgen apparati, yurak astmasi, oshqozon shirasi, harakat neyronlari, limfa bezlari, nafas mashqlari, dori vositalari, na'matak damlamasi, jigar sirrozi, limfa tugunlari, qizilo'ngach axalaziyasi, kasallikning etiologiyasi, varikoz kasalligi, herpes virusi, o't suyuqligi, bemorning jinsi, ko'krak saratoni, o't pufagi, bo'g'im sindromi, tos kamari, jigar fibrozi* kabi ko'rinishlari [Ik.k.~Ie.k.]=SBLSQining nutqiy hosilalaridir⁵⁰

Shuni ta'kidlash joizki, ikki tomonlama mohiyatga ega bo'lgan lisoniy birliklarda shakl va mazmun o'rtasida ko'pincha nomuvofiqlik mavjud bo'ladi. Tovush birliklari chegarasi bilan mazmuniy birliklar chegarasi o'rtasida muvofiqlik bo'lmaydi.⁵¹ Masalan, *tilak* asosi egalik qo'shimchalari bilan turlanganda *tilagim, tilaging, tilagi* shaklda nomuvofiqlik kuzatiladi.

Tilimizni soddalashtirish uchun yaratilgan qoliplar uni o'zlashtirish uchun ham qulayliklar yaratdi. Masalan, ko'chirma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi ayrim qoliplarda soddalashtirilib berilganligi buning yaqqol misoli:

“K”,- m.

M:“K.”

Xuddi shuningdek, fe'l+fe'l birikmalarini bir biridan ajratish uchun ham bir necha qoliplar shakllantirilmoqda. Jumladan, fe'l+fe'l= so'z birikmasi: *yurib kelmoq*, fe'l+fe'l=qo'shma fe'l: *sotib olmoq*, fe'l+fe'l=ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi: *sotib yubormoq* kabi.

Ona tilimizda amalga oshirilayotgan bunday modellashtirish kabi metodlar uning keng imkoniyatlarini, albatta, konkretlashtirib ko'rsatishga xizmat qiladi.

⁵⁰ LISONIY SINTAKTIK BIRLIKLARNING TIBBIY NUTQDA VOQELANISHI maqola Saidaxmedjanovna Nazarova Maxfirat Yusupovna Xojiyeva

⁵¹ Общее языкознание. Внутренняя структура языка. М.: Наука, 1972.-С.94

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ6084-сонли Фармони. 2020 йил 20 октябрь. (<https://lex.uz/docs/5058351>)
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z, Abduzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-T.: Fan va texnologiya , 2009 – B. 288-294.
3. Bahriddinova.B. [Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis Qarshi,2007. – B.26-28.](#)
4. Курбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини: филол. фанлари доктори... диссер... автореф.– Тошкент, 2001.–51 б.
5. Назарова С.Сўз бирикмаси лисоний синтактик қолиплари/Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Бухоро, 2016.–№4. –Б.56-59.